# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№6

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2025**
**IYUN**



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*


Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА ELIBRARY.RU






РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

Elektron nashr,
120 sahifa, iyun, 2025-yil.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
**Hamkorlarimiz:**
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan ........ 12
**Isakov Janabay Yakypbayevich**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash........ 18
**Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B**

Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market ........ 23
**Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova**

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo‘llari ........ 29
**D.E.Qarshiev**

Ta’lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o‘smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O‘zbekiston ........ 35
**Islomova Dilrabo Salomovna**

Oliy ta’lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli ........ 40
**Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o‘gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich**

Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития ........ 47
**Алиев Аброр Мураткулович**

The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration ........ 52
**Dilorom Mutalova**

Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli ........ 57
**Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o‘g’li**

Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar........ 62
**Jalilov Ahmadbek Ikromjon o‘g‘li**

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida ........ 66
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing........ 73
**Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna**

Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties ........ 80
**Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ........ 85
**Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To’xtasinov Boburbek Yusufjon o’g’li**

Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo‘jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish...... ........ 89
**Fazilat Egamberganova Shuhratovna**

Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ........ 93
**Ernaqulov Sunnatillo Nurali o‘g‘li**

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari ........ 98
**Yembergenova Aynur Aydosbaevna**

Mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari ...... 104
**Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich**

Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi ........ 110
**Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ............. 115
**Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li**

# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATIDAN FOYDALANISH DARAJASI VA UNI OSHIRISH OMILLARI

**Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich**
"Moliya" kafedrasi dotsenti, i.f.n., dotsent

**To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li**
University of Business and Science

**ORCID ID: 0000-0002-4048-5765**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi hamda uni oshirish omillari tizimli tahlil qilingan. So'nggi statistik ma'lumotlar asosida eksport hajmi, mahsulot turlari, moliyalashtirish oqimlari, geografik yo'nalishlar va ishchi kuchi ko'rsatkichlari batafsil yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatining hozirgi holati tahlil qilinib, sohadagi mavjud muammolar aniqlangan. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun izchil islohotlar, kredit–grant mexanizmlari, axborot-marketing yondashuvlari va tizimli monitoring zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, eksport salohiyati, diversifikatsiya, xalqaro savdo, to'siqlar, mahsulotlar.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the level of utilization of the export potential by small businesses and private entrepreneurship entities in Uzbekistan, as well as the factors contributing to its improvement. Based on recent statistical data, the paper elaborates on export volume, product variety, financial flows, geographical directions, and labor indicators. According to the findings, the current state of small business export activities is assessed, and existing problems in the sector are identified. The study emphasizes the need for consistent reforms, credit–grant mechanisms, information-marketing approaches, and systematic monitoring to overcome these challenges.

Keywords: small business, export potential, diversification, international trade, barriers, products.

Аннотация: В данной статье системно проанализированы уровень использования экспортного потенциала субъектами малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане, а также факторы, влияющие на его рост. На основе последних статистических данных подробно освещены объем экспорта, ассортимент продукции, потоки финансирования, географические направления и показатели рабочей силы. Согласно результатам исследования, проанализировано текущее состояние экспортной деятельности субъектов малого бизнеса. Выявлены существующие проблемы в отрасли, и подчёркивается необходимость проведения последовательных реформ, внедрения кредитно-грантовых механизмов, информационно-маркетингового подхода и системного мониторинга.

Ключевые слова: малый бизнес, экспортный потенциал, диверсификация, международная торговля, барьеры, продукция.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'yektlarining eksportdagi o'rni sezilarli darajada oshdi. Ushbu jarayon mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini ko'paytirishga qaratilgan kompleks davlat siyosati natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Eksport salohiyatining kengaytirilishi orqali mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda hamda xorijiy valyuta tushumlari ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes eksport faoliyatini rag'batlantirish, uni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini baholash, shuningdek, mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini rivojlantirish masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotda va O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda kichik

biznesning eksportga chiqishidagi imkoniyatlari, to‘siqlari, tashqi muhitga moslashuvi, davlat qo‘llab-quvvatlovi va innovatsion salohiyati asosiy tahlil obyektlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Todaro va Smit (2015) o‘zlarining “Economic Development” asarida kichik biznesni rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etgan. Mualliflar kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport orqali yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni tezda o‘zlashtira olishini, bu esa umumiy raqobatbardoshlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

UNCTAD (2023) tomonidan e’lon qilingan “World Investment Report”da esa kichik va o‘rta biznes subyektlari global qiymat zanjirlariga qo‘shilishi uchun zarur bo‘lgan institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Xususan, kichik eksportchilar uchun logistika infratuzilmasi, moliyalashtirish vositalari va axborot texnologiyalariga kirish imkoniyatlari muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi.

World Bank (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda “Doing Business” ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi, eksport tartib-taomillarining soddalashtirilishi va elektron bojxona tizimlarining joriy etilishi kichik biznesning eksportdagi ishtirokini faollashtirmoqda. Shuningdek, kichik korxonalar uchun tashqi bozorlar haqidagi ma’lumotlarga ochiqlik va raqamli savdo imkoniyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Umarkulov K. M. (2024) o‘z maqolasida yengil sanoat korxonalarining eksport imkoniyatlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahliliga alohida e’tibor qaratgan. U eksport salohiyatini oshirishda davlat grantlari, marketing infratuzilmasini rivojlantirish va texnologik modernizatsiyaning zarurligini asoslab beradi.

Milliy darajada esa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2024-yillarda qabul qilingan bir qator farmonlari (PF–6042, PF–6091, PF–60) kichik biznesni eksportga yo‘naltirish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, sug‘urta mexanizmlarini takomillashtirish va tashqi bozorlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan huquqiy asoslarni yaratdi. Ayniqsa, PF–6042-sonli Farmonda eksport faoliyatida qatnashuvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga bojxona, soliqqa tortish va kreditlash bo‘yicha qator yengilliklar nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Savdo–sanoat palatasining yillik statistik ma’lumotlarida kichik biznesning eksportdagi ishtiroki, mahsulot turlari va eksport geografiyasining kengayish dinamikasi muntazam yoritib borilmoqda. Bu ma’lumotlar ilmiy tahlil uchun muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik tahlil, chiziqli o‘sish dinamikasi, solishtirma jadval uslubi hamda sohalar kesimidagi tarkibiy tahlil usullari qo‘llanildi. Ma’lumotlarning asosiy manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining rasmiy statistik ko‘rsatkichlari tanlab olindi. Eksport hajmi, mahsulot turlari, moliyalashtirish manbalari, eksport bozorlari va ishchi kuchi bo‘yicha dinamik o‘zgarishlar batafsil tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kichik biznes sohasi 2018–2024-yillar oralig‘ida asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha barqaror o‘sishga erishgan (1-jadval). Jumladan, subyektlar soni 51,8 foizga oshgan, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5,2 foizga ko‘tarilgan hamda ish bilan ta’minlanganlar soni 1,6 million nafarga ortgan. Ushbu raqamlar kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

1-jadval:O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

| Ko‘rsatkich | 2018 | 2024 | O‘sish foizi |
|---|---|---|---|
| Kichik biznes subyektlari soni | 371 000 | 563 000 | +51.8% |
| YalMdagi ulushi | 55.5% | 60.7% | +5.2% |
| Ish bilan ta’minlanganlar soni | 7.6 mln | 9.2 mln | +21.0% |

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ma’lumotlari.

Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ishtiroki sezilarli darajada oshmoqda. Bu jarayon mamlakatda tadbirkorlik subyektlariga yaratilayotgan yengilliklar, eksportni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat siyosati hamda raqamli savdo imkoniyatlarining kengayib borishi bilan bevosita bog‘liq. Quyida keltirilgan statistik ma’lumotlar ushbu holatni yaqqol tasdiqlaydi.

2-jadval:Kichik biznes subyektlarining O‘zbekiston eksportidagi ishtiroki dinamikasi

| Ko‘rsatkich | 2020 | 2024 | O‘sish darajasi |
|---|---|---|---|
| Eksport hajmi (mln. AQSh dollari) | 3100,9 | 8973,3 | +189,4 % |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Eksportdagi ulushi (%) | 20.5 | 33.3 | +12,8 punkt |
| Eksport geografiyasi (davlatlar soni) | 25 | 40+ | +60% ortish |

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ma’lumotlari.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining eksportdagi ishtiroki jadal sur’atlarda kengaygan. Jumladan, eksport hajmi 3 100,9 million AQSh dollaridan 8 973,3 million dollarga yetib, deyarli uch baravarga yoki 189,4 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkich kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati, mahsulot sifati va tashqi bozor talablariga moslashuvchanligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 2020-yilda kichik biznesning umumiy eksportdagi ulushi 20,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 33,3 foizga yetgan. Bu esa 12,8 foiz punktga o‘sishni bildiradi. Bunday o‘sish kichik biznes subyektlarining xalqaro savdo aloqalarini faollashtirayotgani, shuningdek, raqamli savdo platformalaridan foydalanish salohiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, kichik biznes milliy eksport salohiyatining muhim drayveriga aylanmoqda.

Ilgari eksport mahsulotlari asosan MDH davlatlari bilan cheklanib qolgan bo‘lsa, hozirda eksport yo‘nalishlari Yaqin Sharq, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini ham qamrab olmoqda. 2020-yilda eksport geografiyasi 25 ta davlatni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 40 dan ortiq davlatga yetgan. Bu esa eksport yo‘nalishlarining izchil diversifikatsiyalashayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil davomida aniqlandiki, kichik biznes subyektlari tomonidan quyidagi mahsulotlar eksport qilinmoqda: yengil sanoat mahsulotlari (trikotaj, to‘qimachilik, kiyim-kechak), qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (meva-sabzavot, quritilgan mevalar), qurilish materiallari (g‘isht, ohak, gips), farmatsevtika va dori vositalari, shuningdek, maishiy texnika va elektronika vositalari.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim strategik resursga aylangan. Ularning eksport faoliyatidagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga, balki eksport geografiyasini kengaytirish va mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimlarining bosqichma-bosqich takomillashgani ushbu subyektlarning eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shunga qaramay, mavjud imkoniyatlardan to‘liq darajada foydalanilmayapti. Xususan, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarning innovatsion darajasi pastligi, raqamli marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, xalqaro sifat standartlariga muvofiqlikdagi kamchiliklar hamda xorijiy bozorlar bilan barqaror aloqalarning yetishmasligi kabi tizimli muammolar mavjud. Bu esa kichik biznes subyektlarining global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini sekinlashtirmoqda.

Mazkur muammolarni hal etish uchun kichik biznesning eksport faoliyatini tizimli va barqaror asosda rivojlantirish zarur. Buning uchun davlat tomonidan taqdim etilayotgan kredit va grantlar samaradorligini oshirish, tashqi bozorlar haqidagi axborot tizimlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, inson kapitaliga investitsiya kiritish hamda raqamli savdo platformalari bilan faol integratsiyani kuchaytirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini baholovchi ilmiy-uslubiy modellar asosida doimiy monitoring olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi PF–60–son Farmoni. “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 18–avgustdagi PF–6042–son Farmoni. “Respublikada eksport va investisiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-4954642
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 21–oktabrdagi PF–6091–son Farmoni. “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab–quvvatlashni yanada kengaytirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”. https://www.lex.uz/docs/-5060630
4. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2015). Economic Development (12th ed.). Pearson Education Limited.
5. Umarkulov, K. M. (2024). “Yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini oshirish yo‘llari”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(4), 10–13.
6. UNCTAD. (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Value Chains. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.
7. World Bank Group. (2024). Doing Business Report – Uzbekistan. Retrieved from: www.worldbank.org
8. O‘zbekiston Respublikasi Savdo–sanoat palatasi rasmiy statistik ma’lumotlari. (2024).

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**